
Farg'ona shahar hokimiga yangi o'rinbosar tayinlandi

Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan viloyat faollari yig'ilishida xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, shahar hokimining o'rinbosarlari, jamoat tashkilotlari mutasaddilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Shahar hokimi H.Habibidinov boshqarib borgan yig'ilishda Prezidentimizning joriy yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, tashkiliy masala ko'rildi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Farg'ona shahar kengashi raisining birinchi o'rinbosari vazifasida ishlab kelayotgan Farhod Jo'raev shahar hokimining o'rinbosari - Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i etib tayinlandi.

Faollar yig'ilishida viloyat hokimining o'rinbosari F.Qosimov so'zga chiqdi.

2020-02-24 12:04:38